

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari

Son 11 Jild 4

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 11 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасолович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баҳодирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўёраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуроевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психология хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Lutfillova Xamida</i>	<i>Murodillova</i>	Лутфиллаев Ҳамидаилло Муродиллаевич
“ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ		
ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА		12-17
<i>Ezhambergenov Xaitboy</i>	<i>Xamidulla</i>	Эзгамберганов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли
ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ		
ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА)		18-25
<i>Esonov Ziyodbek</i>	<i>Yuldashevich</i>	Esonov Ziyodbek Yuldashevich
QO'QON XONLARI SULOLASINING GENEOLOGIK TAHLILI		26-31
<i>Mamatqulov Bekzod</i>		Mamatqulov Bekzod
O'ZBEKISTONDA XX-ASRNING 20-40-YILLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI		
VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI		32-38
<i>Asadova Ra'no</i>	<i>Baymanovna</i>	Asadova Ra'no Baymanovna
O'ZBEK- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO'TARILISHI: HAMKORLIK		
ISTIQBOLLARI		39-42
<i>Saidova Raxima</i>		Saidova Raxima
O'ZBEKISTON VA ITALIYA MUNOSABATLARINING ME'YORIY-HUQUQIY MANBALARI		43-48
<i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich</i>	<i>Ergasheva Ra'no</i>	Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra'no Muzaffarbek qizi
AFROSIYOB ARXEOLOGIK YODGORLIGINING O'RGANILISH TARIXI		49-55
<i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i>		Iriskulov Bekzod Jaxongirovich
TURKİSTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOİR AYRIM		
MULOHAZALAR		56-60
<i>Mirsoatova Sayyora</i>	<i>Turg'unovna</i>	Mirsoatova Sayyora Turg'unovna
QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI		61-66
<i>Luhmonov Shaxzod</i>	<i>Sayfiiddin</i>	Luhmonov Шаҳзод Сайфиддин ўғли
ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО-		
ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР		67-71
<i>Axmedov Bekzod</i>		Axmedov Bekzod
SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O'ZBEKISTONDA QORAKO'LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH		
TADBIRLARI		72-75
<i>Mamatov Jasurbek</i>	<i>Qodirqul o'g'li</i>	Mamatov Jasurbek Qodirqul o'g'li
NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIY HAYOTIDAGI O'RNI		
(UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA)		76-80
<i>Saidaxmatov Sharifbek</i>	<i>Toshpo'latovich</i>	Saidaxmatov Sharifbek Toshpo'latovich
SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY		
YO'NALISHLARI		81-88

*Ибрагимов Раҳмон Зиёдуллаевич*  
 ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИЙ  
 РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ..... 89-93

*Akrorov Botir Bakhodirovich*  
 ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА  
 В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ ..... 94-99

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Tursunov Bekmuxammad Omonovich*  
 IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI  
 RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMI TAKOMILLASHTIRISH ..... 100-108

*Muxitdinova Kamola Alisherovna*  
 «OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN  
 MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI ..... 109-115

*Madraximov Qaxramon Egamberganovich*  
 INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA  
 ERISSHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA ..... 116-125

*Кетманов Авазбек Маликович*  
 КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ  
 ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 126-134

*Xolmirzayev Abdulkamid Xapizovich*  
 KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI ..... 135-142

*Bahriiddinov Jahongirbek Ravshanjon oglisi*  
 MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING  
 OF GOODS AND SERVICES ..... 143-152

*Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi*  
 MINTAQА TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI  
 TASNIFI ..... 153-160

*Sharipov Komil*  
 MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI ..... 161-170

*Rajabov Navruzbek Azimjonovich*  
 MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI  
 QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI ..... 171-179

*Mirzaeva Shirin Nodirovna*  
 SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN  
 UZBEKISTAN ..... 180-187

*Pardayev Rasulbek Islomovich*  
 TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING  
 TAHLILI ..... 188-196

*Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li*  
 SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH  
 XUSUSIYATLARI ..... 197-202

<i>Rahimov Bahromjon Ibrahimovich</i>	
ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ .....	203-209
<i>Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHIYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA).....	210-216
<i>Hasanov Ilkhom Isakovich</i>	
IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN.....	217-221
<i>Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna</i>	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING XUSUSIYATLARI .....	222-227
<i>Maxmudov Jasurbek Ergashevich</i>	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTALARINI MOLIYAVIY JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI .....	228-233
<i>Ravshanov Nodirjon Begalievich</i>	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI .....	234-243
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i>	
SHIHOBIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TA'SIRI .....	244-248
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i>	
XORAZM JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING YANGI O'ZBEKİSTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI .....	249-254
<i>Saburov Jaloliddin</i>	
XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI .....	255-260
<i>Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich</i>	
NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON" TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MA'NAVIY YUKSALISHGA OID G'OYALARING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	261-265
<i>Saidkulov Nuriddin Akramkulovich</i>	
FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY .....	266-271
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i>	
MAHMUD AZ-ZAMAHSARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI .....	272-277
<i>Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich</i>	
ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION .....	278-282
<i>Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich</i>	
TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI .....	283-287

**11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI***Baxronova Dilrabo*

PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ ..... 288-295

*Daliyeva Madina*

DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES ..... 296-300

*Paluanova Khalifa*

STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES ..... 301-306

*Равшанов Махмуд*

СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО ..... 307-311

*Bekbergenova Gulaim Aijarikovna*

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS ..... 312-318

*Normamatov Farrux Komiljon o'g'li*

MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI ..... 319-322

*Gulamova Dilobar Imamkulovna*

ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI ..... 323-326

*Xolmuxamedov Baxtiyor*

TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI ..... 327-334

*Chorieva Iroda Kurbonboevna*

KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI ..... 335-339

*Ganiyeva Orzigel Xayriddinovna*

XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUksiya: SHAKL VA MAZMUN MASALASI ..... 340-345

*Расулова Камола*

ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ..... 346-353

*Омонов Турғунбой*

“СУФУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ ..... 354-358

*Хакбердиева Сайёра Фармоновна*

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ..... 359-364

*Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich*

IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 365-370

*Gubaydullin Artur Faridovich*

CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S “GOOD OMENS” ..... 371-376

*Abdullaeva Sevara Makhsudalievna*

EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES ..... 377-381

<i>Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi</i>	
SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK TAHLILI .....	382-385

<i>Yuldasheva Nigora Baxodirovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI .....	386-390

<i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i>	
ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHЛИLI .....	391-396

## 12.00.00 – YURIDIК FANLAR

<i>Рузметов Хайрулла</i>	
ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ .....	397-402

<i>Ачилова Лилия Илхомовна</i>	
ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ХУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА .....	403-410

<i>Abdubannayev Umidjon</i>	
AXBOROTGA BO'LGАН INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....	411-421

<i>Халиқулов Комолиддин Носирович</i>	
ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА ДАВЛАТ СУВЕRENИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ .....	422-427

<i>Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли</i>	
ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР .....	428-433

<i>Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли</i>	
ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИННИНГ ПРОЦЕССУАЛ МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ .....	434-439

<i>Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich</i>	
IJTIMOIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA XORIJY TAJRIBA .....	440-446

<i>Алиев Асилбек Кадирович</i>	
КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ .....	447-451

<i>Нодирахон Абдурахманова</i>	
РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ .....	452-462

<i>Ғайбуллаев Соҳибжон Ғайбуллаевич</i>	
РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ .....	463-469

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Xusanova Mohira</i>	
OLIY O'QUV YURLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI TAKOMILLASHTIRISH .....	470-479

<i>Берикбаев Алишер Аликулович</i>	
ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛГОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ .....	480-483
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i>	
TALABALARING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEKNOLOGIYASI .....	484-489
<i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i>	
CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGGATISH .....	490-494
<i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i>	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI .....	495-500
<i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i>	
MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYASI .....	501-505
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich</i>	
O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV .....	506-518
<i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i>	
TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI .....	519-524
<i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i>	
SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKİSTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI .....	525-529
<i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i>	
MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI .....	530-534
<i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i>	
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI .....	535-539
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i>	
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI .....	540-545
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i>	
THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY .....	546-550
<i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i>	
THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS .....	551-555
<i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i>	
TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	556-564
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i>	
ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI .....	565-568

**Received:** 31 October 2024

**Accepted:** 5 November 2024

**Published:** 15 November 2024

*Article / Original Paper*

## **PROCESSES OF DEVELOPMENT OF LIGHT INDUSTRY NETWORKS AND FORMATION OF PERSONNEL COMPOSITION IN UZBEKISTAN IN THE 20-40S OF THE 20TH CENTURY**

**Mamatkulov Bekzod**

PhD, University of Economics and Pedagogy, Karshi

**Abstract.** Historical analysis of the emergence and development of food industries in the southern regions of Uzbekistan and problematic situations in this process is based on scientific sources.

**Key words:** Industry, food industry, factory, flour industry, wine industry, oil industry, light industry, vegetable canning industry, personnel policy, flour factories, food, textile, mining industry.

## **O'ZBEKİSTONDA XX-ASRNING 20-40-YILLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI**

**Mamatqulov Bekzod**

PhD, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi

**Annotatsiya.** O'zbekistonda sanoat tarmoqlarining yuzaga kelishi, rivojlanishi va mazkur jarayondagi muammoli holatlar, shuningdek sanoat sohasi ishchilari tarkibini shakllantirish va korxonalarini kadrlar bilan ta'minlash masalasi, sanoat sohasi kadrlari tayyorlash jarayonidagi ziddiyatli holatlar ilmiy manbalar asosida tarixiy tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Sanoat, oziq-ovqat sanoati, zavod, un sanoati, vino sanoati, yog' sanoati, yengil sanoat, sabzavot konserva sanoati, kadrlar siyosati, un zavodlari, oziq-ovqat, to'qimachilik, kon sanoati .

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N04>

O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar tufayli mamlakat sanoat ishlab chiqarish tizimida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilib, zamонавиy sanoat taraqqiyoti uchun keng yo'l ochildi. Iqtisodiy hayotni demokratlashtirish, soha siyosiy tizimida tub o'zgarishlar yasash, boshqarishda yangi shaklni tashkil etish va sanoat korxonalariga egalik qilishning turli shakllarini tarkib toptirish, soha kadrlarini tayyorlash borasida qator muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Sanoat sohasidagi siyosatni samarali amalga oshirish, sanoatni innovatsion asosda tashkil etish, tashqi bozorlarda yuqori talabga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim" [1, 134].

Hozirgi kunda qo'yilayotgan murakkab vazifalarining ijobiy hal etilishi ko'p jihatdan uning tarixiga ham bog'liq hisoblanadi. Shuning uchun soha tarixini chuqr o'rganib, har tomonlama chuqr tahlil qilib, umumlashgan xulosalar yordamida ertangi kun istiqbollarini belgilash O'zbekiston tarixi fanining dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Jumladan, sanoat sohasining bir qancha tarmoqlarining yuzaga kelishi, xususan, oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi tarixi eng murakkab va shu bilan bir qatorda qiziqarli mavzulardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu davrda sovet davlati sanoat sohasida ham "sotsialistik qurilish" g'oyasini ilgari surib, tizim faoliyatini yo'lga qo'yishida jiddiy o'zgarishlar qilindi. Bu davrda yaratilgan ilmiy maqolalar, adabiyotlar va dissertatsiya ishlarida asosiy e'tibor sanoat sohasidagi jadallashtirish siyosati, sohadagi o'sish sur'atlari, ishchilar sonining ortishi, fabrika va korxonalar sonining yildan yilga ko'payganligi bilan izohlanib, sanoatlashtirish siyosati mohiyati xolislik va haqqoniylilik nuqtayi nazardan o'rganilmagan. Mustaqillik davrida barcha sohalar tarixi ilmiy jihatdan yangi nazariy metodologiyaga tayangan holda talqin etishga kirishilib, soha tarixi bo'yicha ilmiy maqolalar, yangi adabiyotlar, dissertatsiya ishlari bajarildi. O'zbekiston iqtisodiy hayoti, jumladan, sanoat sohasi tarixiga bag'ishlangan ishlar salmog'i ko'p bo'lsada, ammo ularda ayrim kamchiliklar ham mavjud bo'ldi. Shuningdek, tadqiqotlarning birortasida 1920-1940-yillarda O'zbekiston sanoat sohasi tarixi, xususan oziq-ovqat sanoati tarixi va rivojlanishi o'rganilmagan, maxsus tadqiqot obyekti sifatida tanlab olinmagan. Sovet davri tadqiqotlarida besh yillik rejalar davrida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha tarixchilar mamlakatning sanoatlashuviga baho berilgan.

O'zbekiston SSRda oziq-ovqat sanoatini yo'lga qo'yish yuzasidan ham ba'zi ishlar amalga oshirildi. Masalan, yog', un, vino, konserva ishlab chiqarish ko'paytirilib, aholi ehtiyojini qondirish borasida tadbirlar olib borildi.

1921 – 1922-yillarda To'rtko'l yog' zavodi qayta tiklanib 2448 pud yog' ishlab chiqardi. 1924-yil O'zbekistonda 6 ta yog' zavodi ishlab turdi. 1923 – 1924-yil bu zavodda 336 ming pud yog' ishlab chiqargan bo'lsa, 1924 – 1925-yili 1060 ming pud yog' ishlab chiqardi. 1924 – 1925 xo'jalik yiliga 688 ming pud yog' Bosh paxta komiteti orqali Moskvaga jo'natildi. 1923-yil o'rtalarida paxta yog'i tannarxining yuqoriligi tufayli 1 pud yog' narxi 12 rublga chiqdi va paxta yog'i savdosi kamayadi. Shu yili Rossiyadan kungaboqar yog'i ko'plab olib kelinib, 1 pudi 6 rublga sotildi [2, 302].

O'zbekistonda zavod tipidagi un tortish korxonalari XIX asrning oxirlarida paydo bo'lgan. Bu davrda O'zbekiston hududida kepakli jaydori un tortiladigan, unumdonligi bir sutkada bir necha sentner bo'lgan 5 mingdan ortiq tegirmon bo'lgan. 1877-yil rus savdogarlari Toshkentda bir sutkada 10 tonna navli un tortilgan tegirmon qurib ishga tushiradi. 1883-yil Toshkentda birinchi zavod tipidagi korxona ish boshladi.

Turkiston respublikasi un sanoati tresti 1920-yili tashkil etildi va shu vaqtin uning tarkibida 21 ta un korxonasi va 6 ta guruch zavodi kirdi. Bu davrda O'rta Osiyoga Rossiyadan kelayotgan donning kamayishi munosabati bilan un sanoati sohasida ham orqaga ketish kuzatilib, tegirmonlarning eskiligi, texnik jihozlarining foydalanish uchun yaroqsiz ahvolga tushib qolganligi, shuningdek, suv tanqisligi kabi omillar ham bu soha ishining rivojiga to'sqinlik qildi. 1924-yil 1 pud donni tegirmonda yanchish 35 tiyinga to'g'ri keldi. 1924-1925-yilda 2,466 ming pud un sotildi. "Sredazzleb" aksionerlik jamiyati ixtiyorida 12 ta tegirmon bo'lib, ularda 3,8 mln. pud don yanchildi. Mazkur tegirmonlarni qayta texnik jihozlash uchun 160 ming rubl ajratiladi.

O'zbekistonda vino ishlab chiqarish yuzasidan ham muayyan ishlar amalga oshirildi. "Turkvino" Toshkent bo'limiga asosan 2 ta korxona, ya'ni I.I. Pervushkina zavodi hamda "Degress" nomli vinochilik punkti qarashli edi. I.I. Pervushkina zavodi spirt ishlab chiqarish uchun xom ashyni asosan Qovunchi shakar zavodidan oldi. Zavod bir oyda 1613 chelak birinchi navli spirt tayyorladi. "Degress" vinochilik punkti 10 pud olmagan 300 chelak "Alma-Buza" nomli xushbo'y ichimlik ishlab chiqardi. Turkiston vinosi quvvati 20 gradusgacha bordi. Urush yillari vino ishlab chiqarish bir munkha orqaga ketdi.

1925-yil uzum hosili yomon bo'lganligi uchun vino sanoati ishida ham orqaga ketish kuzatildi. Mavsum oxiri sovuq bo'lganligi uchun hosilning ko'p qismi terib olinmay turib sovuq urdi. Tayyorlanishi lozim bo'lgan 607 ming pud uzumdan, faqat 178 ming pudi tayyorlanib, reja 21 foizga bajarildi. Bir pud uzumning narxi davlat tomonidan 1 rubl 25 kopeyk qilib belgilandi. Ammo bu baho juda past bo'lganligi uchun dehqonlar hosilni punktlarga deyarli topshirmadilar. "O'zbekvino" tashkiloti Kavkazdan vino mahsulotini sotib olishga majbur bo'ldi. Vino ishlab chiqarish zavodlari non va mayizdan spirt olishni ko'paytirdi. Natijada aroq ishlab chiqarish ko'paydi. Vinoning narxi oshib bordi. 1924-1925-yilda bir chelak vinoning narxi 4 rubl 92 kopeyk bo'lsa, 1925-1926-yili 6 rubl 31 kopeyk bo'ldi. 1 gradus spirt narxi 24,4 kopeykdan 33,2 kopeykaga ko'tarildi [3, 65].

O'zbekistonda vino ishlab chiqarish sanoati "Turkvino" tresti tomonidan boshqarildi. O'rta Osiyoda bir yilda 535 ming chelak vino ishlab chiqarilgan bo'lsa, shuning 385 ming chelagi O'zbekiston hissasiga to'g'ri keldi. 1924 – 1925-yil O'zbekistonda 1298 ming rubllik vino ishlab chiqarildi.

O'rta Osiyoda bu davrda shakar ishlab chiqarish bilan faqat bitta, ya'ni Qovunchi shakar zavodi shug'ullandi. Bu zavod Toshkent viloyatida hozirgi Yangiyo'l shahrida iste'fodagi ofitser V.M. Ivanov tomonidan 1904-yili O'rta Osiyo temir yo'lining Kaufman stansiyasi yaqinida bunyod etildi. Zavodning o'zida gidrostansiya bo'lib yiliga 300 pud shakar ishlab chiqardi. Bu korxona 1911-yil moliyaviy tanglik tufayli yopildi.

Qovunchi shakar zavodini 1922-yili qaytdan ochishga harakat qilindi. Ammo shakar ishlab chiqarish uchun yetarli xom ashyo bo'lmaganligi tufayli zavod yana o'z faoliyatini to'xtatdi. Shakar O'zbekistonga Ukrainadan keltirila boshlandi va har yili 3 million pud shakar chetdan keltirildi. Holbuki, shakar uchun asosiy xom ashylardan biri hisoblangan lavlagi yetishtirish O'rta Osiyo iqlim sharoitida ancha qulay edi. Masalan, Toshkent viloyati lavlagi yetishtiruvchi asosiy hududlardan biri hisoblangan. Ukraina lavlagisida shakar miqdori 16,4 foiz bo'lsa, O'zbekistonda bu 19 – 23 foizni tashkil qildi.

1922-yil zavodda birinchi navli shakardan 43 550 pud, ikkinchi navli shakardan 32 050 pud ishlab chiqardi. Bu davrda Qovunchi rayonida 488 desyatina, Eski Toshkentda 150, Chinozda 145, Kelesda 100 desyatina, jami 883 desyatina yerga lavlagi ekildi. Paxtaning narxi lavlagiga nisbatan yuqori bo'lganligi tufayli dehqonlar, asosan, paxta maydonlarini ko'paytirishga e'tibor berdi [4, 25].

O'zbekistondagi yagona shakar zavodi ham turli bahonalar bilan yopildi. Bu ittifoqdagi respublikalarni bir-biriga bog'liqligini kuchaytirish yuzasidan ko'rilgan tadbirlardan biri edi.

Bu davrda oziq-ovqat sanoati mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning o'sishi, bevosa bu sohada ko'proq sanoat korxonalarini tashkil etilishiga turki bo'ldi. Mahalliy aholining ko'pchiligining fabrikada tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish imkoniyati

cheklangan edi. Bu turdag'i oziq-ovqat mahsulotlarini asosan shahar aholisi iste'mol qilib, qishloq aholisi esa o'zlar tayyorlagan mahsulotlarni iste'mol qilganlar.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari mahalliy xom ashyolar asosida mahsulot ishlab chiqardilar.

1936-yil Sovet davlatidagi eng yiriklardan biri bo'lgan Kattaqo'rg'on yog'-ekstraksiya zavodi ishga tushirildi.

Urushgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda sabzavot konserva sanoati korxonalari, asosan, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida joylashdi. 1938-yilda O'zbekistonda 5,87 mln dona banka va 3,8 ming tonna quruq meva, 1940 esa 26,4 mln dona banka meva-sabzavot va 12,1 ming tonna quruq meva ishlab chiqarildi. Bu sohaga tegishli raqamlar tahlil etilganda, viloyatlar o'rta sidagi tafovut namoyon bo'ladi. Masalan, 1940-yil Toshkent viloyatda 23 ming dona banka konserva ishlab chiqarilgan bo'lsa, bu Qashqadaryo viloyatida 59 ming banka, Qaroqalpog'istonda 20 ming, Xorazmda 15 ming banka edi. Buxoro, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarida ham bu soha yo'lga qo'yiladi.

Oziq-ovqat sanoatida ayniqsa hukumat tomonidan baliqchilik sanoatiga muayyan e'tibor qaratdi. Mazkur sanoat tarmog'i asosan Qoraqalog'iston ASSR yo'lga qo'yilgan bo'lib, 1928-yil 123,0 ming rubl, 1937-yil 2,1 mln rubl ajratildi.

1934-yil Mo'ynoq baliq zavodiga 1436 nafar ishchi faoliyat olib bordi. Bu zavod 1933-yil 565 ming rubllik, 1940-yil 1826 ming rubllik mahsulot ishlab chiqardi. Mo'ynoq go'sht-baliq konserva zavodi qurilishi 1935-yil boshlandi. Sobiq Ittifoqdagi eng yirik baliq urug'i tozalaydigan zavod Nukusda 1934-yil ishga tushirildi [5, 107].

O'zbekistonning janubiy viloyatlarida ham oziq-ovqat sanoatini yo'lga qo'yish yuzasidan tadbirlar belgilanib, bir qator kichik hajmdagi korxonalar ishga tushirildi.

1937-yilda Termizda yog', 1938-yilda esa non zavodi, 1939-yilda Denovda vino zavdolari ishga tushirildi. Qashqadaryoda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish yuzasidan ham bir qancha chora-tadbirlar belgilandi.

Oziq-ovqat sanoatida asosan o'simlik yog'ining ulushi yuqori bo'lib, konditir, makaron va pivo mahsulotlarining ulushi kamligi bilan izohlanadi. 1940-yilda ham go'sht va go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmida o'sish kuzatilmadi. Qashqadaryoning ayrim tumanlarida, xususan G'uzor va Kasbi tumanlarida go'sht va go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun bir qancha oziq-ovqat sanoat korxonlari tashkil etildi.

1940-yil O'zbekiston bo'yicha ishlab chiqarilgan go'sht va go'sht mahsulotlarining Buxoro viloyatiga 1591 tonna, Xorazmga 800 tonna, Qashqadaryo viloyatiga 303 tonna to'g'ri keldi.

Shu yili O'zbekiston ishlab chiqarilgan o'simlik yog'ining 45878 tonnasi Farg'ona, 43562 tonnasi Andijon, 21081 tonnasi Samarqand hisobiga to'g'ri keldi. O'simlik yog'i Surxondaryoda 15 tonna, Qoraqalpog'iston ASSR da 27 tonnani tashkil etdi [6, 114].

1933-1937-yillarda Qoraqalpog'iston ASSR sanoatini rivojlantirish uchun 22,7 mln. rubl, 1938-1940-yillarda 20,3 mln rubl ajratildi. Ajratilgan mablag'ning asosiy qismi Qo'ng'iroq paxta tozalash zavodi hamda Mo'ynoq baliq-go'sht konserva kombinatiga sarflandi.

1933-yil Qoraqalpog'istonda 5 ta yirik sanoat korxonasi bo'lsa, 1940-yilga kelib ular soni 89 ta bo'ladi [7, 12].

Bu kabi holatlarga sovet davri adabiyotlarida quyidagicha izoh beriladi: "... ishchilar sinfining moddiy va madaniy darajasini oshirishga yetarli e'tibor qilinmasdan ixtisosli va

ixtisossiz ishchilarga ham bir xilda ish haqi to'lana berardi. Masalan, Toshkentdag'i 5-sonli ko'n zavodida shunday hodisa ro'y berganki, qora ishchi oyiga 20-25 so'mdan ishlagan holda, ishlab chiqarish tajribasiga ega bo'lgan instruktor yoki sex boshlig'i faqat 150-175 so'm ish haqi olgan. Mehnatga haq to'lashning noto'g'ri uyushtirilishi natijasida ishchilarni ma'muriy-texnik ishlariga ko'tarish o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yilgan". Masalan, 1933-yilning birinchi kvartalida Quvasoy elektr stansiyasiga 355 kishi ishga kelgan bo'lsa, 843 kishi ishdan ketdi. Natijada shu yili mazkur tashkilotlarda qurilish-montaj ishlarining tannarxi 21 foizga oshdi. [8, 46].

1923-yilda Turkistonda 11 ta hunar-texnika maktablari bo'lib, ularda 865 ta o'quvchi tahsil oldi. Shu yili o'lkada 19 ta hunar texnika kurslarida 1379 nafar tinglovchi qatnashdi. Texnikumlarda 827 nafar kishi o'qidi.

1926-yil O'zbekistonda 10 fabrika-zavod ta'limi maktabida 738 nafar o'quvchi, 3 ta hunar-texnika maktabida 176 nafar kishi o'qidi.

1925-1926-yilda hunar-texnika ta'limi uchun O'zbekistonda 1 mln 230 ming rubl ajratildi. Ammo bu turdag'i ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi nochor bo'lib, o'quv xonalari yaxshi jihozlanmadi. Ularda pedagog kadrlar yetishmadı.

Sovet davlati ishchilari orasida hukmron mafkura g'oyalarini keng targ'ib etish maqsadida partiya maorifi ishini jonlantirishga harakat qilindi. Masalan, 1927-yili birgina Toshkentning Markaziy, Qizil Sharq, Birinchi may tumanlaridagi korxonalarda 158 ta siyosiy maktab ochilib, ularda 3450 tinglovchi ishtirok etdi.

Ishchilarga yaratilgan maishiy-turmush sharoitlarining nochorligi, mehnat intizomining sustligi, ishchilarning ish faoliyatini tashkil etishdagi kamchiliklar, ishchi va xodimlar o'rtaida sababsiz ishga kelmaslikning ko'payishi hamda o'z xohishiga ko'ra ishni tashlab ketishga sabab bo'ldi. 1929-yil O'zbekistondagi paxta tozalash zavodlarining mehnat intizomi tekshirilganda, ko'plab salbiy holatlar aniqlandi. Masalan, korxonaga navbatchilikka qo'yilgan ishchilar o'z ish joylarini bemalol tark etib, bu holda zavod ma'muriyatini umuman ogohlantirmaslik hollari aniqlandi. Davlat mulkini talon-taroj qilish, ish joyiga spirtli ichimlik iste'mol qilgan holda kelish odatiy hol hisoblandi. Mehnat intizomini yaxshilash yuzasidan korxonalar ma'muriyati deyarli hech bir chora-tadbirlar ko'rmaganlar.

Ishchilar orasida "sarkorlar" alohida mavqega ega edi. Sarkor – bu zavodning sobiq xo'jayinlari tomonidan tayinlangan kishilar. Zavod egalari ishchilar bilan sarkorlar orqali aloqa olib bordi. Zavodlar natsionalizatsiya qilingandan keyin ham, sarkorlar ishlashda davom etib, ular ishchilarning ish haqlarini o'z foydalari uchun ishlashga majbur etdi. Sovet paxta tozalash zavodlarida ham sarkorlar yashirin ravishda o'z faoliyatlarini davom ettirdi. Bunday holat Samarqand 66, Fedchenko 20, Qo'qonqishloq 6 paxta tozalash zavodlarida aniqlandi. Sarkorlar ishchilar orasidagi ta'siridan foydalanib ishchi komitetlari a'zoligiga saylanib olganlar. Shuningdek, arxiv hujjatlarida ta'kidlanishicha, Samarqand va Qo'qonqishloq zavodlaridagi ish tashlashlar sarkorlar tashabbusi bilan uyushtirildi. Ishchilarga haq to'lashda qoidalarga amal qilmaslik, maoshlarning kamligi tufayli Samarqanddagi 66 sonli, Qo'qonqishloqdagi 6-sonli zavodlarda ishchilarning ochiqdan ochiq ish tashlashlari bo'lib o'tadi. Qo'qonda ishchilar maoshlarini oshirishni talab qilib ish tashladilar, shuningdek, millatchilik tufayli ham qarama-qarshiliklar kelib chiqdi. Samarqand 66 sonli zavodida tojik ishchilari ma'muriyat tomonidan taklif etilgan o'zbek ishchilarini zavodda ishslashlariga to'sqinlik qilib, bosh ko'tardilar.

Tarix fanlari doktori, professor E.Qobulov Surxondaryo viloyati misolida sanoatlashtirish siyosatining salbiy oqibatlarini quyidagicha izohlaydi. 1931-1933-yillarda Surxondaryo viloyatida ham Termiz paxta tozalash zavodining ikkinchi navbati, limonad zavodining tashkil etilishida muammolar yuzaga keldi. Bunday holatning yuzaga kelishiga asosiy sabab:

*birinchidan, rejalarining noaniqligi;*

*ikkinchidan, sanoat korxonalari ishchilarining nochor ahvoli, ularning moddiy-maishiy jihatdan yetarli ta'minlanmaganidir [9, 12].*

Sovet davri hujjatlarida kadrlar tayyorlash rejasi ortig'i bilan bajarilganligi qayd etiladi, amalda ishchilar malakasini oshirish o'qitish yuzasidan trest boshliqlari va zavod direktorlari masalaga keraklicha e'tibor qaratmadni. Kadrlar o'quvsizligi uchun trest ma'muriyati shtatlari kadrlar bilan to'la ta'minlanmadni.

Xullas, sovet hukmronligining dastlabki yillarda O'zbekiston sanoat korxonalarini mutaxassislar bilan asosan Markaziy rayonlardagi oliy ta'lim muassasalari ta'minlab turdi. Moskva Davlat universiteti, Leningrad Davlat universiteti, Moskva politexnika instituti, Xarkov poligrafiya instituti tayyorlagan muhandis-texnik kadrlar O'rta Osiyo sanoat korxonalarida ishslash uchun yuborildi. Sovet davlati sanoatini rivojlantirishda omma "g'ayrat - shijoatidan" unumli foydalanib, "Sotsialistik musobaqa", "Zarbdorlik", "Staxanovchilik" harakatlarini uyushtirdi. Ammo, bu turdag'i harakatlarga ishchilarning 70 foizidan ortig'i jalb etilgan bo'lsada, amalda ko'zlangan maqsadga erishilmadi. Bu harakatlar sun'iy ravishda keng yoyilib, masala bazasidan ishchilarning yig'ilishlari, konferensiya va syezdlari chaqirildi [10, 12].

Ayrim xorijlik tadqiqotchilar tomonidan SSSRda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatiga ijobiy baho berilib, sanoat ishlab chiqarishning mutlaq hajmlari bo'yicha XX asrning 30-yillari oxirida SSSR dunyoda AQShdan keyin 2-o'rinni egallaganligi ta'kidlanadi. SSSRda sanoat texnologiyasi yaratilishi mumkinligi, shuningdek, G'arbdan farqli o'laroq SSSRda bozor iqtisodiyoti va fuqarolik jamiyatni yo'q edi.

V.Lelchuk "SSSRni sanoatlashtirish: tarixi, tajribasi, muammolari" nomli risolasida SSSRdagi sanoatlashtirish jarayoniga yuqori baho berib, quyidagi fikrlarni bildiradi:

***birinchidan,*** SSSRda sanoat o'zgarishi ikkinchi darajali xarakterga ega edi. Rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ancha kechroq amalga oshirilganligi sababli, yangi qurilgan va rekonstruksiya qilingan korxonalarda chetdan eksport qilinadigan asbob - uskunalar va texnologiyalar, shuningdek, mehnatni tashkil etish usullari qo'llanilgan.

***ikkinchidan,*** ishlab chiqarishning sanoat turi dastlab iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida shakllanishi mumkin. Sanoatlashtirishda og'ir va mudofaa sanoatining ustuvor rivojlanishiga e'tibor qaratildi.

***uchinchidan,*** sanoat texnologiyasi yollanma mehnatdan ortiqcha qiymat olish uchun yaratilgan va kapitalistik ekspluatatsiya vositasi bo'lib xizmat qilgan. Stalinistik model, asosan, sotsialistik bayroq ostida dastlabki sanoat kapitalizmini qayta ishlab chiqardi.

***to'rtinchidan,*** 70-yillarga qadar sovet jamiyatining muhim xususiyati uning kelajakka intilishi, qo'rquv va dahshatga dosh berishga tayyorligi, o'z farzandlari va umuman kelajak avlodlari uchun porloq kelajak uchun qat'iy intizom va g'ayriinsoniy texnologiyalarga bo'ysunish edi" [11, 12].

Xullas, O'zbekistonda urushdan oldingi yillarda ham sanoat sohasini jadallashtirish tendensiyasi davom ettirilib, respublika iqtisodiyotining sobiq Ittifoqning asosiy paxta bazasi

sifatidagi ixtisoslashuvi yanada avj oldirildi. Bu davrda O'zbekiston xalq xo'jaligida sanoat ishlab chiqarish salmog'i yildan yilga oshib borgan bo'lsada, ammo eng asosiy sanoat korxonalari ittifoq tasarrufida bo'lib, u turdag'i korxonalarining salmog'i barcha sanoat korxonalarining 90 foizini tashkil qildi.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2021. – B. 134
2. Mo'minov N. M. Sovetlarning O'zbekistonni sanoatlashtirish uchun kurashi. (1928 – 1932-yillar). – T., 1959. – 302 bet
3. Jo'raqulov O., Ergasheva J. Qashqadaryo sanoati tarixi. – Qarshi: Nasaf, 1996; – 65 bet
4. Sherozovich, M. B. (2024). INDUSTRIAL MEASURES IN UZBEKISTAN 1925-1954 AND THEIR RESULTS (in the case of Kashkadarya and Surkhandarya regions). *World scientific research journal*, 24(1), 195-200.
5. Mo'minov N. M. Sovetlarning O'zbekistonni sanoatlashtirish uchun kurashi. (1928 – 1932-yillar). – T., 1959. – 107 bet
6. Sharipov A. O'zbekistonda oziq-ovqat sanoatining rivojlanishida. – T., "O'zbekiston", 1973. – 290 str.
7. MAMATQULOV, B. (2024). O 'ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT KORXONALARINING TASHKIL ETILISHI VA HUDUDLAR SANOATINING IXTISOSLASHUVI JARAYONINING TARIXIY TAHLILI (1930-1950 yy). *Acta NUUz*, 1(1.2. 1).
8. Sherozovich, M. B. (2024). CONFLICT SITUATIONS IN THE PROCESS OF TRAINING INDUSTRY PERSONNEL IN SURKHANDARYA AND KASHKADARYA REGIONS: HISTORICAL ANALYSIS AND RESULTS (1925-1950). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(5), 221-225.
9. Ziyodullayev S. Manoxin I. Sovet O'zbekistonining sotsialistik sanoati. – T., 1949. – 144 bet.
10. Mamatqulov B.SH.O'zbekistonda sanoatlashtirish siyosatining amalga oshirilishi va uning oqibatlari (1925-1941-yy); Monografiya. T.: "Lesson Press" MCHJ nashriyoti. - 2023. -134 b.
11. Qobulov E. Surxondaryo sanoatining ilk odimlari. – Termiz: Jayxun, 1993-12 bet

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**N<sup>o</sup> 11 (4) - 2024**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**" электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масьулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).